

TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA KO'RGAZMALI METOD VA USULLARINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

TerDPI o'qituvchisi


Umurova Laylo Lochin qizi

TerDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada MTTlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, shakllari va metodlari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik talimni va ekologik ongni shakllantirish tashkil etishga qo'yiladiga talablar hamda ularni tashkil etishga oid ma'lumotlar keng yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: *metod, axloqiy sifatlar, xulq odat, faoliyat, tarqatma materiallar, kinofilim, diofilim, plakatlar, usullar, kuzatish, oddiy tajribalar, pedagogik tamoillar*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z oikasi iqlimining tabiati va pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi.



Turli yosh guruhlarda MTTlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metodlardan — kuzatishdan keng foydalanadi.

Kuzatish — *tabiat jismlari hamda hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan vd bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan*

Rus mutafakkiri K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi».

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur hamda nutq ishtirok etib, barqarori diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi hamda nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat hamda kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi. Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga hamda ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa hamda sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish yo'li bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa hamda hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan, biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroq bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhim.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash juda zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib oladilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, mushuklarni suvlarga solishadi, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning «oltin zanjiri» ekanligini tushuntirishimiz zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berib boriladi.

«Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir», **deb hisoblaydi I.P.Pavlov**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kattalarga «Nima uchun?», «Bu nima?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadilar.


Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha *qisqa muddatli hamda uzoq muddatli* bo'lishi mumkin. O'simlik va hayvonlarni o'sishi, rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — *uzoq muddatli kuzatishlardan* keng foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektga kuzatilayotgan holatini oldingisi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi. Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug'orish, tagini yumshatish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning oyoq izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning qisqa muddatli turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga yordam beradi. Solishtirma hamda uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko'ra murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, tahlil qilish xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi.

Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra o'simlik hamda hayvonlar, ob-havo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi faoliyatlarda tashkil etiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg'ir yog'ishi,

kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlar kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi va shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok, tafakkur hamda nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tunguntirishda bolaning tajribasi, bilimi, malakalari muhim ahamiyatga ega.



Rasmlar nafaqat kognitiv, balki bolalarning estetik rivojlanishi uchun ham muhimdir: go'zal manzara ko'zni to'xtatadi, bir vaqtning o'zida tinchlantiradi hamda hayajonlantiradi, kuchli hissiy taassurot qoldiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, qoida tariqasida va turli xil texnikada (rasm, grafika, reproduksiya, metallografiya, badiiy fotografiya) yaratilgan ko'plab landshaftlar mavjud. Siz ularni ramkaga solib, vaqti-vaqti bilan turli mavzularda ko'rgazmalar tashkil qilishingiz mumkin. Pedagoglar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilan birgalikda bunday ko'rgazmalarga tashrif buyurib, ularni san'at asarida aks etgan tabiat go'zalligini, tabiatdan olgan taassurotlari asosida inson tomonidan yaratilgan buyumning go'zalligini ko'rishga o'rgatadi va go'zal ob'yekt muhitidan bahramand bo'lishga, ularni himoya qilishga o'rgatadi. O'quv videolari bolalarda yorqin taassurot qoldiradi: agar sizda jihozlar bo'lsa, o'rmon, cho'l, arktik hamda tropik zonalar aholisi haqida filmlar to'plashingiz kerak. Bolalarga ajoyib ta'sir, masalan, dengizni ko'rsatish. Bolalarga issiq mamlakatlar hayvonlarini suratlarda yoki hayvonot bog'ida qayta-qayta ko'rsatish ularning dunyoqarashini kengaytiradi, atrofdagi olamga qiziqish

uyg'otadi. Chumolilar uyasi, asalarilar oilasi hamda suv osti aholisi hayotini aks ettiruvchi o'quv filmlari mavjud.

Bolalarni xayvonot dunyosi bilan tanishtirish. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda atrof-alam bilan tanishtirish alohida o'rin tutadi. Bolalarni atrof-alam bilan tanishtirishni o'ziga yaqin bo'lgan hayvonot dunyosidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalarning hayvonot olamiga qiziqishi juda yuqori bo'ladi. Bu orqali ularning tasavvur va idrokini shakllantirish mumkin.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, ularning foydali tomonlari bilan tanishtirish, hayvonlar bilan do'stona munosabatni shakllantirish.

Ta'limiy maqsadi: bolalarni hayvonot dunyosiga qiziqtirish.

Tarbiyaviy maqsadi: bolalarni hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarini shakllantirish, kengaytirish, rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda ularni ikki guruhga bo'linishi (uy va yovvoyi hayvonlar); hayvonlarning nimalar bilan oziqlanishini va ular haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Uslub: ortiqchasini top, ajoyib xaltacha, og'zaki savol-javob.

Shakl: guruhlarda va individual ishlash.

Vosita: hayvonlar rasmlari tushirilgan rasmlar, haykalchalar.

Usul: hayvonlarning kichik haykalchalari, chizmalar.

Nazorat: kuzatish, og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat, savol-javob.

Baholash: rag'batlantirish asosida.

Kutiladigan natijalar: tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishning oson va samarali usullaridan foydalanadi.

Bolalarga hayvon nomlari o'rgatiladi, ularning uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi tassavurlari kengaytiriladi.

Kelgusi rejalar: tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni tatbiq etishni takomillashtirish; o'z ustida ishlash; mavzuni hayotiy misollar va voqealar bilan bog'lash; pedagogik mahoratni oshirish.

Mashg'ulot davomida bolalar hayvonlarning turli sharoitlarda yashashga moslashganini bilib oladi. Shu bilan birga, ular hayvonlar bir necha guruhga bo'linishi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Mashg'ulotning borishi: tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratib oladi. "Toychoqlar" va "Yo'lbarlar" deb guruhlarni nomlab olishadi. Yozuv

taxtasiga esa uy va yovvoyi hayvonlar tasviri tushirilgan rasmlarni ilib qo'yadi va savollar beradi.

- Rasmda qanday hayvonlar tasvirlangan?
- Bu hayvonlar nimalar bilan oziqlanadi?
- Bulardan qaysilarini ko'rgansiz?
- Uyingizda qanday hayvonlar bor?
- Hayvonlarni yaxshi ko'rasizmi?

Tarbiyachi bolalar bilan savol-javob jarayonida har bir guruh bergan javoblarini nazorat qilib boradi va fikrlarni umumlashtiradi. Tarbiyachi bitta guruhga uy hayvonlarining rasmini, ikkinchi guruhga yovvoyi hayvonlarni navbat bilan ko'rsatadi. Bolalar esa hayvonlar nomlarini aytadi. Rasmda tasvirlangan hayvonlarni ko'rsatib savol beradi.

Tarbiyachi: – Bu yerda nechta hayvon bor?

Bolalar: – It, mushuk, qo'y, echki, sigir, yo'lbars, fil, bo'ri, tulki, olmaxon.

Tarbiyachi: – Bu hayvonlar nima bilan oziqlanadi?

Bolalar: – Yem-xashak, o't- o'lan, go'sht, sichqon, yong'oq.

Tarbiyachi: – Bu hayvonlarni yaxshi tanib oldingizmi?

Bolalar: – Ha

Tarbiyachi: – Hayvonlarni tanib olgan bo'lsangiz juda yaxshi. Bolalar, hayvonlar nimalar bilan oziqlanishini tushunib oldingiz, deb o'ylayman. Ularni inson hayotida tutgan o'rnini ham bilib oldingiz. Umid qilamanki, endilikda jonivorlarga ozor yetkazmaysizlar.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi siz bilan bitta o'yin o'ynaymiz. O'yinimizning nomi: "Ortiqchasini top". Biz uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni bir-biridan ajratamiz. Men hozir sizga quticha beraman. Unda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar rasmi aralashgan. Siz esa guruhngiz bilan uy va yovvoyi hayvonlar rasmini ajratib berasiz.

Bolalar uy hayvonlar orasida adashib qolgan yovvoyi hayvonni, yovvoyi hayvonlar orasida adashib qolgan uy hayvonini topishadi. To'g'ri bajargan guruh rag'batlantiriladi.

Tarbiyachi mashg'ulotni mustahkamlash uchun "Ajoyib xaltacha" o'yinidan foydalanadi. Bunda ikkala guruhdan bittadan ishtirokchi chiqarib xaltacha ichiga solingan hayvonlar haykalchalarini olib nomi, rangi, shakli, uy yoki yovvoyi hayvon ekani haqida ma'lumot beradi. Qolgan ishtirokchilar ham navbat bilan chiqadi.

Tarbiyachi bolalarning topshiriqlarni qanday bajarishini nazorat qilib boradi. To'g'ri bajargan guruh bolalarini rag'batlantiradi va mashg'ulotga yakun yasaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Q.Haydarov, S.Nishonova Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T.: O'qituvchi. 1992.
2. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.: O'qituvchi. 1995.
3. X.J.Djabborova "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" T.: TDPU 2002.
4. SH.A.Sodiqova, M.A.Rasulxojayeva bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Fan va texnologiya 2013.
5. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim – tarbiya berishning o'ziga xosligi. T.: O'qituvchi. 2000.
6. Г.У Холбоева, Р.Ж Окбоева - Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста. Евразийский научный журнал, 2018
7. G.U Xolboyeva - Bolalariini maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi. Новости образования: исследование в XXI веке, 2022
8. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 53-57.
9. Abduqasimovna, A. S. (2022). DIFFERENT VIEWS OF EASTERN THINKERS AND PEDAGOGUES-SCIENTISTS ABOUT THE CHILD AND HIS EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 348-352.
10. Abduqasimovna, A. S. (2022). ATTENTION TO THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE AND REFORMS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 342-347.
11. Абдумажитова, С. А. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ ЧУВСТВА ВРЕМЕНИ КАК ЭСТЕТИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 81-83.
12. Abduqosimovna, A. S. (2022). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6508403>. Results of National Scientific Research International Journal, 1(1), 265-269.